

## QUR'ONI KARIMDA KO'ZNING NOVERBAL IFODALARI

Muydinov Pahlavon Qahramonovich

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi doktoranti*

**Annotatsiya:** *Tana a'zolar tilida bir necha a'zolarining o'rni ahamiyatga bog'liq. Ko'z esa ular orasida eng muhimi va eng rostgo'yi hisoblanadi. U insonlarning yolg'on habarlarining asli rostligini, kishilarning holatini ifodalaydi. Ko'plab mutaxassislar ko'zni qalb eshigi deb ham ta'riflaydilar.*

**Kalit so'zlar:** *Qur'oni Karim, tana tili, ko'z, nazar, nigoh, muloqot.*

## NONVERBAL EXPRESSIONS OF THE EYE IN THE HOLY QUR'AN

**Abstract:** *In the language of body parts, the role of several parts depends on their importance. The eye is the most important and the most truthful among them. It represents the truth of people's lies and the state of people. Many experts describe the eyes as the door to the heart.*

**Key words:** *The Holy Qur'an, body language, eyes, look, gaze, communication.*

Insoniyat tarixida ko'z unga nisbatan qaratilgan e'tibor nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga molik tana a'zo hisoblanadi. U xoh ta'na a'zolar orasida muhimlik jihatidan bo'lsin xoh ularning chiroy aks ettirish jihatidan bo'lsin hamisha u haqida ko'p gaplar gapirilgan. Hattoki, shoirlaru yozuvchilar, adiblaru mumtoz allomalar ushbu tana a'zoning eng ko'p zikr qiluvchi haridorlari bo'lishgan. Boisi, ko'z qalb eshigi va ruh eshigidir. U insonning ichki tuyg'ulari haqida, uning hissiyotlari haqida eng rost ma'lumotlarni habarini beradi. Til aqlga bo'ysunib bergan ma'lumotlari agarchi yolg'on bo'lsa-da, ko'z yolg'onni uddalay olmaydi.

Payg'ambar s.a.v hayotlarida ham ushbu tildan foydalanilganiga bir dalil o'laroq mana bu hadisni keltirish o'rinlidir. Oisha r.a dan rivoyat qilinadi: “ Allohning menga bergan ne'matlaridan yana biri shuki, Rosululloh s.a.v mening uyimda, mening yonimda bo'ladigan kunlarida va mening quchog'imda vafot etdilar. Alloh taolo o'lim onida u zotning a.s og'iz so'lagi bilan mening og'iz so'lagimni birlashtirdi. Shu asnodda ukam ukam Abdurrahmon kirib keldi. Qo'lida misvok bor edi. Payg'ambar a.s ning unga qaraganlarini ko'rdim va u zotning a.s misvokni yaxshi ko'rishlarini bilardim va “ Uni sizga olib beraymi?” dedim. Boshlari bilan “ Ha “ ishorasini qildilar. Olib berdim. Og'izlariga soldilar. Biroz dag'al edi. “ Yumshatib beraymi? “ dedim. Boshlari bilan “ Ha “ ishorasini qildilar. Men tishlarim bilan misvokning uchlarini titib, yumshatib berdim. Yonlarida bir idish suv bor edi. Qo'llarini unga tiqib ular bilan yuzlarini silab:”Allohdan boshqa iloh yo'q. Albatta o'limning sarxushligi bor” – dedilar. Keyin men qo'llariga suv quyib turdim. U zot s.a.v : “ Rafiqul A'lo, rafiqul a'lo “ deb Allohga murojaat qilib pichirlar edilar. Toki jonlari qabz qilinib qo'llari pastga tushgunga qadar davom etdilar “<sup>69</sup>.

<sup>69</sup> Abu Homid G'azzoliy, “ Mukoshafatul qulub “ , 498-bet, tuzatilgan qayta nashr, G'ofur G'ulom, Toshkent, 2018

Yuqorida zikr etilgan hadisni oqib tushundikki, mo'minlar onasi Oisha r.a Payg'ambar a.s ning ko'z qarashlaridan ukalari Abdurrahmonning qo'llarida tutib turgan misvokni ishlatmoqchi ekanliklarini angladilar. Holbuki, bu yerda hech qanday so'z bilan istak bildirilmadi. Bu hadisdan biz bir emas balki uchta noverbal muloqotni kuzatdik. Avvalida, Oisha r.a ning Payg'ambar a.s ning ko'zlariga qarab turgan paytlarida u zot a.s ning misvokka huddi uni hojlayotganday nazar solishlari va ana o'sha xohishning ko'zlardagi aksini u ko'zlarga qarab turgan boshqa bir ko'zning fahmlashi ko'zning naqadar muhim muloqot vositasi ekanligini isbotlaydi. Hadis davomida, Oisha r.a payg'ambar a.s dan “ Uni sizga olib beraymi? “ deb so'rganlarida u zot a.s ning boshlari bilan “ Ha “ deya ishora qilishlari va yana ikkinchi bora u misvokni yumshatib berish taklifiga ham huddi shunday imo qilishlari tana tilining hamma zamon va makonda eng muhim aloqa vositasi bo'lganligiga dalil bo'ladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, rosululloh s.a.v ma'lumot yetkazishda ikki ko'zlaridan foydalanganlar.

Qur'onga nazar soladigan bo'lsak, unda ko'z tili haqida, uning inson nazari aks etadigan ma'nolar haqida so'z ketgan bir nechta o'rinlarda misollarga ro'baro' kelamiz. Kitobda ko'z tomonidan bajariladigan aynan ko'z so'zi bilan kelgan yoki ko'zning vazifalarini ifodalaydigan nazar, qarash, basirat, tikilish, mo'ralash kabi lafzlar bilan kelgan ba'zi harakatlar vorid bo'lgan.

**“ Biron sura nozil bo'lgan vaqtda “ Sizni birov ko'rmadimi? “ deb bir-birlaiga nazar soladilar-da, so'ngra burilib ketadilar. Ular fahmlamaydigan qavm bo'lganlari uchun Alloh qalblarini burib qo'ydi “ (Tavba surasi 127-oyat).**

Shayx Sha'roviy o'zining tafsirida, ushbu oyat sharhida shunday deydi:” Ular biror narsa deyishmoqchi bo'ladilar lekin tillari bilan gapira olmaydilar va ko'zlari va nazarlariyu qarashlari bilan o'zaro gaplashadilar. Nazarda huddi “ sizni birov ko'rdimi? “ so'zi borday gaplashardilar. Siz bunday holatni ma'ruza qilayotgan odamni eshitib eshitayotgan narsasi o'ziga yoqmayotgan narsalarni ko'radigan odamning yuz ifodalarida ko'rishingiz mumkin”.<sup>70</sup>

Ushbu oyat tafsirida Roziy ajib gaplarni aytgan. Uning keltirishiga ko'ra, har gal Qur'oni Karimdan bir oyat nozil bo'lsa va u oyatda munofiqlarning sifatleri va ularning alamli oqibatleri haqida so'z ketgan bo'lsa munofiqlar ushbu oyatni eshitishdan aziyat chekishadi va uni eshitishga chidashmaydi. Shu sababdan Qur'on o'qilayotgan joydan chiqib ketadilar va o'zlari bir-biriga chiqqanlarini biror kishi ko'rib qolmadimi qabilida ko'zlari orqali so'roqlashadi. Ya'ni, agar sizni kimdir ko'rib qolsa chiqmang, munofiqligingizni bilib qolmasin deya habarlashadi.

Ko'zlar til kabi so'zlaydi. Odamlar ko'p asrlardan beri ko'z tili va uning ishoralarini o'qishga suyanib keladilar. Bu haqida ko'plab she'rlar bitilgan. Ali ibn Abu Tolibning r.a bu haqida aytgan baytlarini keltiraman :

*Suhbatdoshning ko'zlaridan bilib olar ko'z,*

*Dushmanimi u suhbatdosh unga yoki do'st.*

Ko'zlar tili tushunarli bo'ladi va u odatda tarjimonga ehtiyoj sezmaydi. Balki, bizning mana bu gapimiz mubolag'a bo'lmaski, ko'z tili har qanday ijobiy yoki salbiy hissiyotlarning almashinuvini amalga oshiruvchi eng tushunarli va ishonchli vositadir. Ko'z ila insonning asl

<sup>70</sup> تفسير الشعراوي، المجلد التاسع، ص 5599

holati, uning xafaligi yu hursandligi, ishonchiyu umidsizligi, havotiriyu hotirjamligi, g'azabiyu rizosi kishi naqadar ularni berkitishga harakati qilmasin albatta bilinadi. Darhaqiqat, ko'zlar tili har qanday boshqa tildan kuchli sanaladi. Sababi, so'zlar ila so'zlovchi iboralarini jozibador yetkazishi, yoki o'zini jahli chiqayotganday ko'rsatish uchun ovozi baland ko'tarishi yoki aksincha o'zini hursanday namoyon qilish uchun maqtashi yoki olqishlashi mumkin, ammo ko'zlar alday olmaydi. Ular kishining botinidagi hissiyotlaridan darak berib qo'yadi<sup>71</sup>.

Qur'oni Karimga qaytadigan bo'lsak, uni ko'zni bir necha holatlarda ifoda qilgan. Masalan, basar, nazar, ko'rish, qarash va ayni ko'z so'zi ko'rinishda ham ifodalagan. Va quyida kitobda kelgan ba'zi holatlar bilan tanishib chiqamiz.

**“ Biz ulardan ba'zi guruhlarni bahramand qilgan narsalarga ( *havas-la* ) nazar solma! Ular uchun hafa ham bo'lma! Mo'minlarga qanotingni pastlat!“** (Hijr surasi 88-oyat).

**“ Ko'zlariningni ularni sinash uchun ayrimlariga bahramand qilib berganimiz hayoti dunyoning turli ne'matlariga tikma. Robbingning rizqi yaxshi va boqiydir. “**

(Hijr surasi 88-oyat)

Arab tilidagi مَدَّ so'zi cho'zish ma'nosini bildiradi. Ko'z o'z holatida cho'zilmaydi balki cho'ziladigan naarsa u - nazardir. Ibn Manzurning “ Lison ul arab “ lug'atida ikki ko'zning cho'zilishi bu “ qarash “ ma'nosini ifodalaydi<sup>72</sup>. Zubaydiy aytadi: “ Cho'zish - nazarni biror narsaga qarashdir. Ushbu مَدَدْتُ عَيْتِي إِلَى كَذَا gapi ma'no jihatidan “unga rag'bat bilan qaradim” ifodani beradi<sup>73</sup>. Mufasssirlar ko'zlarning ushbu zikri ma'nosini orzu, yoqtirishlik va ma'qullash deganlar. Tana tilida ushbu ta'birning ifodasi ikki usulda bo'ladi. Biri ijobiy bo'lib, u yoqtirishlik va ma'qullashni ifodalaydi. E'tiborimizni tortgan manzaralarga ulardan rohatlanganib nigohimizni uzun qilamiz va shunday qolishni orzu qilamiz. Chunki, u nazar tashlanayotgan narsa ila huzur olishdir. Misol uchun, agar biror inson go'zal bir suratni ko'rsa unga uzoq tikilib qoladi va orzu qiladiki o'sha joyga kirib qolsa-yu unda yashasa. Ikkinchisi esa salbiy bo'lib, u qarashlik bir holat yoki shaxs bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni, nafratlansak yoki hasad qilsak uzoq qarab qolamiz. Ammo, yuqoridagi ikki oyatda nazarni uzoq qilishdan murod salbiy ma'noda emas balki ijobiy ma'noda bo'lib o'zgidagi narsani orzu qilib yoki yiqtirib uzoq qarashlik haqida gap ketyapti. Alloh taolo ushbu qarashlikni ikki ko'zning cho'zilishi deya tasvirlaganki, huddi ular nafs orzu qilgan tomonga boqib o'z joyidan chiqib ketayotganday<sup>74</sup>.

Ibn Adil aytadi:” Vahidiy bu ma'noni tasqidlab bunday degan:”Ikki ko'zning biror narsaga cho'zilishi deb, agar u tomonga qarata nazarni uzun qilsa, uning o'sha narsaga bo'lgan havasi yoki uni istashini bildiradi. Payg'ambar s.a.v dunyo matosidan maqtalagan narsaga qaramas edilar”<sup>75</sup>.

**“ O'shanda ular sizlarning yuqori tomoningizdan ham, sizlardan quyiroq tomondan ham (*bostirib*) kelgan edilar. O'shanda ko'zlar tinib yuraklar bo'g'izlarga tiqilib qolgan va sizlar Alloh haqida (*turlh*) gumonlar qila boshlagan edinglar. “**

(Ahzob surasi 10-oyat)

<sup>71</sup> كمال عبد العزيز إبراهيم، لغة الجسد في القرآن الكريم، ط1، القاهرة، دار الثقافة للنشر، 2010م

<sup>72</sup> ابن منظور، لسان العرب، المجلد السابع – حرف (م) ص37

<sup>73</sup> الزبيدي، محمد بن محمد عبد الرزاق، تاج العروس من جواهر القاموس، 40م، دار الهداية، دط، 155\9

<sup>74</sup> خالد بن محمد المسيهيج، لغة الجسد في القرآن الكريم، ط1، دار لوتس، 2020

<sup>75</sup> ابن عادل، أبو حفص عمر بن علي (ت880هـ): تفسير اللباب، 20م، بيروت: دار الكتب العلمية، دط، دبت 1\3167

**“ Bizlar o’shalarni masxara qilib olgan edikmi?! Yoki (ular ham bizlar bilan mana shu jahannamda birga-yu ammo) ko’zlarimiz og’ib (ularni ilg’amay qoldim)?! “**

(Sod surasi 63-oyat)

Ushbu oyatda kelgan “ زَاغَتِ الْأَبْصَارُ “ birikmasi ma’no jihatidan “ ko’zlar og’di “ deya tushuniladi. Lug’at va tafsir ulamolarining ittifoqiga ko’ra ko’zning og’ishi uning asl ko’rinishidan boshqa bir xolatga to’satdan tez o’zgarib, unga tikilib qolishiga aytiladi. Bunday holat odatda kuchli qo’rquv va tasodiflik birga bo’lganda sodir bo’ladi. Islom tarixidan bizga ma’lumki, musulmonlar mushriklar bilan bo’lgan Handaq deb nomlangan jangda ular tomon har tomondan yig’ilib kelgan katta qo’shin oldida qo’rquvga tushdilar. Ularning ustiga har tomondan, Makka mushriklariyu Madinaning atrofidagi qabilalardan tashkil topgan dushmanlar oqib kela boshladi. Alloh taolo mo’minlarning ushbu holatini “ ko’zlar og’ishi “ degan vasf ila juda go’zal tasvirlab bergan. Alloh taolo ushbu ko’z bilan bog’liq bo’lgan tana harakati sohibining naqadar kuchli qo’rquvda ekanligini shu darajada tasvirlaydiki, hatto “ ulardagi qo’rquv eng oliy darajaga chiqdi “ degan vasfdan ko’ra yetarliroq bo’ldi.

Qur’oni Karimning boshqa bir o’rnida “ko’zning og’ishi” ma’nosidagi boshqa bir oyat ham borki, u bo’lishsiz holatda keladi.

**“ Nigoh burilmadi ham, haddidan oshmadi ham. “**

(Najm surasi 17-oyat)

Ushbu oyatning yuqoridagi oyatlardan farqi, payg’ambar as. ning madhlarida keladi. U zot s.a.v Me’roj kechasida oliy maqomda bo’lganlarida ko’zlari og’magan holatda sobit turganliklari tasvirlangan.

**“ Sen mo’minlarga ayt, ko’zlarini tiysinlar va farjlarini saqlasinlar. Ana shu ular uchun pokdir. Albatta, Alloh nima hunar qilayotganlaridan habardor. Sen mo’minlarga ayt, ko’zlarini tiysinlar, farjlarini saqlasinlar va ziynatlarini ko’rsatmasinlar, magar zohir bo’lgan ziynatlar bo’lsa (mayli)...“**

(Nur surasi 30-31oyatlar)

Qur’oni Karimda “ ko’zni tiyishlik “ ikki marta, bir marta erkaklarga xitob o’laroq va ikkinchi marta ayollarga xitob tarzida kelgan. Oyatdagi “ غَضُّ الْبَصَرِ “ birikmasi ma’no jihatidan “ ko’zni tiyish, uni pastlatish “ ni bildiradi. Mufasssirlarning fikriga ko’ra, ko’zni tiyishlikdan murod “ko’zlarni yumish yoki ularni quyiga qaratish, ko’rish harom qilingan tomondan ko’zni berkitishdir “.

**“ Ular boshlarini ko’targan holda yugururlar. Ko’zlari o’zlariga qaytmaydi. Ko’ngillari esa, bo’m-bo’sh bo’lur“**

(Ibrohim surasi 43-oyat)

**“ Chaqiruvchiga qarab bo’yinlarini cho’zib, shoshilib borurlar. Kofirlar, bu qiyin kun-ku, derlar“**

(Qomar surasi 8-oyat)

**“ Kufir keltirganlarga nima bo’ldiki, bo’yinlarini cho’zib sen tomon shoshmoqdalar?!“**

(Ibrohim surasi 43-oyat)

Ushbu oyatlarda kelgan “ مُهْطِعِينَ “ so’zi o’zbek tilidagi Qur’oni Karim ma’nolar tarjimasida “ bo’yinlarini cho’zib “ deya tarjima qilingan. Bu ma’no ayni holatni ifoda etadi. Sababi, arab tilida “ أَهْطَعَ “ so’zi “ biror narsa tomonga nigohini unga qaddagan holatda yugurish “ ga aytiladi. U tomon yugurib borayotgan narsasidan esa nazarini ilib qochmaydi.

Ushbu ma'no tafsir ahli iroda qilgan “ biror narsadan ko'zni uzmagan holda unga tomon bo'yinni cho'zish” ma'nosidan farqlanmaydi. Shu bilan birgalikda, ba'zi mufassirlar esa ushbu so'zni “ shoshiladilar

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muhammadsodiq Muhammadyusuf .“Tafsiri Hilol”, “Sharq” nashriyot-matbaasi.Toshkent.2001
2. Abu Homid G'azzoliy, “ Mukoshafatul qulub “ , 498-bet, tuzatilgan qayta nashr, G'ofur G'ulom, Toshkent, 2018
3. تفسير الشعراوي، المجلد التاسع، ص 5599  
كمال عبد العزيز إبراهيم، لغة الجسد في القرآن الكريم، ط1، القاهرة، دار الثقافة للنشر، 2010م
4. البغوي، الحسين بن مسعود الفراء(ت516هـ): معاً لم التنزيل، 8مج، ط4، المدينة المنورة: دار طيبة، 1997م، 3\2
5. ابن منظور، لسان العرب، المجلد السابع – حرف (م) ن ص 37
6. الزبيدي، محمد بن محمد عبد الرزاق، تاج العروس من جواهر القاموس، 40مج، دار الهداية، د.ط، 9\155
7. خالد بن محمد المسيهيج، لغة الجسد في القرآن الكريم، ط1، دار لوتس، 2020
8. ابن عادل، أبو حفص عمر بن علي(ت880هـ): تفسير اللباب، 20مج، بيروت: دار الكتب العلمية، د.ط، د.ت 3167\1